

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

DJALILOV JAVLON XALILOVICH

**BENZIN-HAVO ARALASHMASIGA VODOROD BERISH ORQALI
YENGIL AVTOMOBILLARNI EKSPLOATATSION
KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH**

05.08.06 – G'ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundariyasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Abstract contents of dissertation of doctor of philosophy (PhD)
in technical sciences**

Djalilov Javlon Xalilovich

Benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali yengil avtomobillarni
ekspluatasion ko‘rsatkichlarini oshirish..... 3

Джалилов Жавлон Халилович

Повышение эксплуатационных показателей легковых автомобилей
за счет подачи водорода в бензо-воздушную смесь..... 25

Djalilov Javlon Khalilovich

Increasing the performance of passenger vehicles by supplying hydrogen
to the petrol-air mixture..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

DJALILOV JAVLON XALILOVICH

**BENZIN-HAVO ARALASHMASIGA VODOROD BERISH ORQALI
YENGIL AVTOMOBILLARNI EKSPLUATATSION
KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH**

05.08.06 – G'ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida - B2024.1.PhD/T4513 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ismatov Jumaniyez Fayzullayevich**
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Xalmuxamedov Aziz Suratovich**
texnika fanlari doktori, dotsent

Kadirshayev Turgunbay
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: **Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.15/31.08.2022.T.73.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent sh, Temiryo'lichilar ko'chasi, 1-uy, Tel.: (99871) 299-00-01, faks: (99871) 293-57-54 e-mail: rectorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01, faks: (99871) 293-57-54 e-mail: rectorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__»_____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «__»_____dagi_____ - raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Riskulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

K.Z.Ziyaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, (PhD), dotsent

A.A.Muxitdinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va aholining transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini sifatli qondirish maqsadida, transportni barqaror, xavfsiz va samarali ishlashi katta ahamiyatga egaligi hisobga olinib, avtomobil transporti sohasida energiya manbalaridan oqilona va samarali foydalanishga, ularning ekologik xavfsizligini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Hozirda rivojlangan horijiy mamlakatlarda transport sohasida energiya tejamkorligini, ularning ekologik xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiy samaradorliklarini belgilab olish, alternativ va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan yonilg'i sifatida foydalanish orqali avtomobil transportidan foydalanish ko'rsatgichlarini oshirishga qaratilgan masalalar yetakchi o'rinni egallagan. Bu borada, jumladan, avtotransport vositalarini ishlab chiqarishda ularni takomillashtirishga, hamda ularni ekspluatatsiya qilish jarayonida ish unumdorligini, ularni samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda avtomobil transportining yonilg'i tejamkorligini oshirish, ularni qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ta'minlash orqali transport vositalarini ekologik xavfsizligini oshirish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda, jumladan, real ekspluatatsiya sharoitlaridan kelib chiqib, avtotransport vositalarining konstruktiv parametrlariga minimal o'zgartirishlar kiritish orqali modernizatsiya qilish, ekologik toza yonilg'ilardan foydalanish orqali, transport xarajatlarini va transport vositalarini atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, avtotransport vositalarining ichki yonuv dvigatellarini ekspluatatsiya sharoitlarini baholash orqali uning ish jarayonini takomillashtirish yordamida, ularni energo-samaradorligini oshirish maqsadida, ma'lum foydalanish sharoitiga mos dvigatel ish rejimlarini tanlash uslublarini ishlab chiqish kabi masalalar dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizdagi yengil avtomobillarga vodorodni qo'shimcha yonilg'i sifatida ishlatish, ularni texnik iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatini kengaytiradi va shu maqsadda ekologik toza va samaradorligi yuqori bo'lgan tabiiy qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan oqilona foydalanishni belgilashga qaratilgan keng qamrovli rejali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buni, transport tizimlarining ekologik va energiya xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan, sohadagi olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarni rag'batlantiruvchi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi yaqqol ko'rsatib turibdi. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...Iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash" va "...O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining metallurgiya, to'qimachilik, oziq-ovqat, avtomobil ishlab chiqarish sohalariga ta'sirini o'rganish"¹ bo'yicha vazifalari alohida belgilab

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

berilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda iqtisodga va qolaversa xalq xo'jaligi tarmoqlarida transport vositalarining, xususan avtomobil transportining o'rmini hisobga olingan holda, avtomobillarining yonilg'i tejamkorligini oshirish, ularni atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish yo'llarini izchil ishlab chiqish va asoslash, shuningdek, ushbu xususiyatlarini baholashning uslublarini ishlab chiqishga bog'liq tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlar to'g'risida"² gi PQ-4422-sonli, 2021-yil 9-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5063-sonli "O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"³ gi Qarorlari va 2024-yil 29-martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-166 – sonli «Atmosfera havosiga transport vositalarining salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»⁴ gi Qarori ijrosini ta'minlashga hamda mazkur faoliyat sohasida qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III «Energetika, energiya - resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy olimlar tomonidan transport vositalari dvigatellarida ekspluatatsiya sharoitida alternativ yonilg'ilardan foydalanish samaradorligini tadqiq etish masalalari o'rganilgan, jumladan H. Buchner, R. Dell, G. Lukas, S.O. Bade Shrestha, G.A. Karim, Z. Huang, Jinhua Vang, Ferran A. Ayala, Inge Saanum, G. Woschni, K. Zeilinger, U. Wiebicke, H. Rottengruber, G. Zitzler, K. Uolker, B. Eder, D. Kalass, M. Larson, S.A. Salman, E. Rizen, E. Gregebi, A. Blimberg va boshqalar vodorodni yonilg'i sifatida ishlatish muammolari ustida tadqiqotlar olib borishgan.

MDH davlatlaridan A.I. Mishenko, V.A. Vagner, V.A. Zvonov, Y.V. Galishev, A.I. Gayvoronskiy, V.I. Yeroxov, G.N. Zlotin, N.A. Ivashenko, A.A. Kapustin, N.N. Patraxaltsyev, A.S. Sokolik, V.M. Fomin, A.S. Xachiyani, N.A. Xripach, A.P. Shaykin, A.A. Golosov, A.A. Skripnik, V.A. Fedorov, Z.R. Kavtaradze, A.V. Shibanov, A.A. Zelensov, S.S. Sergeyev, I.I. Timchenko, D. Ramadan, V. Baader, V.L. Chumakov, N.V. Krasnoshekov, AD. Perederiya, T.I. Andryuxin, A.N. Zaxarchenko va boshqalar vodoroddan foydalanish muammolari ustida tadqiqotlar olib borishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan A.A. Mutalibov, S.M. Qodirov, B.I. Bazarov, Sh.J. Imomov, J.F. Ismatov, S.A. Kalaulov, A.X. Vasidov, R.N. Axmatjanov, O.G. Ergashev va boshqalar tomonidan ichki yonuv dvigatellarida alternativ

² <https://lex.uz/docs/-4486125>.

³ <https://lex.uz/docs/-5362032>.

⁴ <https://lex.uz/pdfs/6858809>.

yonilg'ildan foydalanish, avtomobillarning ekspluatatsion xususiyatlarini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borilgan.

Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan olimlarimizning ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, vodorodni ekspluatatsiya sharoitida samarali foydalanish masalalari yetarlicha ochib berilmaganligi, shuningdek ichki yonuv dvigatellari uchun vodorodni qo'shimcha berish orqali yonilg'i sifatida foydalanish usullari yoritilmaganligini ko'rsatdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022 yildagi PQ-436-son qaroriga asosan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash DASTURI asosida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha yonilg'i sifatida berish orqali yengil avtomobillarning ekspluatatsion (ekologik va iqtisodiy) ko'rsatkichlarini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

muqobil yonilg'ida harakatlanuvchi transport vositalarining konstruktiv xususiyatlarini tahlil qilish;

vodorod yonilg'isi bilan ishlaydigan turli transport vositalarining ishlash xususiyatlarini tahlil qilish;

benzin-havo va vodorod aralashmasida ishlaydigan yengil avtomobil dvigateli jarayonlarini hazariy hisoblash;

vodorod olish uchun vodorod generatori qurilmasi tizimini takomillashtirish;

benzin-havo va vodorod aralashmasida ishlaydigan, uchqundan o'tildiriladigan dvigatelli yengil avtomobilni tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish;

amaliy tadqiqotlar natijalarini dvigatellarni loyihalash va ishlab chiqarishda foydalanish uchun manfaatdor tashkilotlarda tadbiq qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida yengil avtomobilning dvigateli F16D3 ($N_e=109$ o.k./80 kVt, $V_h=1,6$ l) olingan.

Tadqiqod predmetini benzin-havo va vodorod aralashmasida ishlaydigan dvigatelli yengil avtomobillarning ekspluatatsion (iqtisodiy va ekologik) ko'rsatkichlari tashkil etadi.

Tadqiqod usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy tadqiqod usullari, transport vositalarining harakati va ekspluatatsion xossalari nazariyalari, regression tahlil, interpolyatsiya usuli, texnik tizimlarning tahlili va sintezi, ichki yonuv dvigatellari nazariyasi va raqamli hisoblash, eksperimental tadqiqodlar uchun sinov poligonlari va shahar tsiklida standart va xususiy usullardan foydalangan holda, yonilg'i tejamkorligini va transport vositalari chiqaradigan zaharli moddalarining miqdorini eksperimental o'rganish usullari qo'llanilgan.

Tadqiqodning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

interpolyasiya usulidan foydalanib, yonuvchi aralashmaning konsentratsiyasi inobatga olinib dvigatelning ishlash siklining samaradorligini baholash uslubi ishlab chiqilgan;

benzinda ishlaydigan dvigatellar yonuvchi aralashmasiga beriladigan vodorodning miqdorini hisobga olib yengil avtomobilning tashqi tezlik va yonilg'i tejamkorligi ko'rsatkichlarini hisoblashning uslubi grafoanalitik usulda takomillashtirilgan;

eksperimental usullar bilan, benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish orqali, benzin-havo-vodorod yonuvchi aralashmasini baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

korrelyatsion-regression tahlil usuli yordamida, yonilg'ilarning fizik-kimyoviy xususiyatlaridan kelib chiqib benzin-vodorod-havo aralashmasining normal yonish tezligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kerakli tarkibdagi vodorod olish uchun vodorod generatori qurilmasi tizimlari takomillashtirildi;

ichki yonuv dvigatellari uchun vodoroddan qo'shimcha yonilg'i sifatida foydalanishning, benzin yonilg'isiga ishlaydigan dvigatellarga nisbatan afzalliklari asoslandi;

benzin-havo aralashmalariga vodorod qo'shishda eksperimental (poligon, eksploatatsion) tadqiqotlar o'tkazish metodologiyasi va dasturi ishlab chiqildi;

chiqindi gazlar zaharliligini kamaytirish, ekologik xavfsizlikni va yonilg'i tejamkorligini oshirish maqsadida vodoroddan qo'shimcha yonilg'i sifatida foydalanishning ilmiy-texnikaviy tamoyillari asoslandi.

Tadqiqod natijalarining ishonchliligi. Tadqiqodlar zamonaviy usullar va o'lchov vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan. Tajriba sinov ishlarini rejalashtirishning asosiy texnik va matematik qonunlaridan foydalangan holda, ishlab chiqilgan nazariy qoidalar, eksperimental tadqiqodlar natijalari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqod natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqod natijalarining ilmiy ahamiyati, benzin-havo aralashmasiga vodorod qo'shimcha sifatida berilganda ishlaydigan yengil avtomobilning tortish-tezlik, ishonchilik va yonilg'i tejamkorligi xususiyatlarini hisoblashning takomillashtirilgan usuli ishlab chiqilib amaliyotga tadbiiq etilganligi va vodorodning kerakli tarkibini tanlash usulini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Olingan tadqiqod natijalarining amaliy ahamiyati ichki yonuv dvigatellarida yonilg'i sifatida foydalanish uchun benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish uchun, vodorod generatori qurilmasining tizimlarinin takomillashtirilganligi, benzin-havo aralashmasida vodoroddan qo'shimcha yonilg'i sifatida foydalanish uchun vodorodning kerakli tarkibi aniqlanganligi va buning oqibatida sarf-harajatlarning kamayishi va yengil avtomobillarning eksploatatsion ko'rsatkichlarini, ularning raqobat bardoshliligini oshishi bilan izohlanadi.

Tadqiqod natijalarining joriy qilinishi. Benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo‘shimcha berish orqali yengil avtomobillarning ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini, yonilg‘i tejamkorligi va ekologik ko‘rsatkichlarini oshirish ilmiy tadqiqoti b‘yicha olingan natijalar asosida:

yonuvchi aralashmaning konsentratsiyasini hisobga olgan holda, dvigatelning ishlash siklining samaradorligini baholash uslubi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida tatbiq etilgan (vazirlikning 2024-yil 5-martdagi №03-03/3-2267-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada alternativ vodorod yonilg‘isida ishlaydigan turli transport vositalarini, xususan, uchqundan o‘t oldiriladigan ichki yonuv dvigateli bilan jihozlangan yengil avtomobilning 11% gacha energiya tejamkorligiga erishilib, ekologik muammolarini kamayishiga olib kelgan;

yengil avtomobilning tashqi tezlik va yonilg‘i tejamkorligi ko‘rsatkichlarini hisoblashning uslubini takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida joriy qilingan (vazirlikning 2024-yil 5-martdagi №03-03/3-2267-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali o‘tqazilgan poligon sinovi davomida 120 km/soat tezlikda-11,17%, 90 km/soat tezlikda-11,06% va shahar siklida-6,29% yonilg‘i tejamkorligiga erishilgan;

benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo‘shimcha berish orqali, benzin-havo-vodorod yonuvchi aralashmasini baholash mezonlari O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida tatbiq qilingan (vazirlikning 2024-yil 5-martdagi №03-03/3-2267-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, NO_x ning chiqindi gazlari 12-32% ga, CO₂ 10-45% ga, CO 10-47% ga, CH 10-25% ga kamayishiga erishilgan;

benzin-vodorod-havo aralashmasining normal yonish tezligi aniqlash, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida joriy qilingan (vazirlikning 2024-yil 5-martdagi №03-03/3-2267-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, bitta yengil avtomashinani ishlatishning umumiy yillik energiya va atrof-muhitga ta‘siri 2, 58387 mln. so‘m, oldi olingan yillik ekologik zarar esa 83,87 ming so‘mni tashkil etishiga erishilgan.

Tadqiqod natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqod natijalarining e‘lon qilinganligi.

Dissertatsiya mavzusi va materiallari bo‘yicha jami 16 ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, 10 ta ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan 3 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan. EHM uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi 1 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **Kirish** qismida olib borilgan ilmiy-tadqiqod ishining dolzarbligi, maqsadi va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqot ob'yekti va predmetlari yoritilgan, mamlakatimizda fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya ishining tarkibi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

So'nggi paytlarda dvigatel ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning ko'plab xorijiy tadqiqot markazlari yonilg'i tejash, atrof-muhitni ifloslantirish muammolari va an'anaviy suyuq uglevodorod yonilg'ilarini yangi turlarga almashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni olib bormoqda.

Dissertatsiyaning 1-bobi "**Muommoning dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari**" deb nomlangan. Bu bobda benzin-havo aralashmalariga vodorodni qo'shimcha berish orqali yengil avtomobilning ko'rsatkichlarini oshirish masalasidagi ko'plab olimlarning olib borgan ilmiy-tadqiqot va tajriba sinovlarining natijalari tahlil qilingan.

Buning natijada dissertatsiya ishining asosiy maqsadi, benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha yonilg'i sifatida berish orqali yengil avtomobillarning ekspluatatsion (ekologik va iqtisodiy) ko'rsatkichlarini oshirish ishlaridan kelib chiqib, quyilgan vazifalarni bajarish uchun, olib boriladigan ishlarning asoslash ishlari amalga oshirildi.

Butun dunyoda ichki yonuv dvigatellari bilan jihozlangan 1,5 milliarddan ortiq avtomobillar ekspluatatsiya qilinadi. Ularning soni doimiy ravishda oshib bormoqda. Avtotransport vositalarining an'anaviy neft yonilg'ilarini iste'mol qilish ulushi 90% ortiqni tashkil etadi.

Avtomobillarning chiqindi gazlaridagi zaharli moddalar (CO, CH, NO_x, PM) uchun standartlar doimiy ravishda kuchaytirilmoqda (Evro-3, 2005; Evro-5, 2008; Evro-6, 2015). Ushbu xavfli zaharli moddalarni kamaytirish avtomobillarning ekologik va kimyoviy xavflarning asosidir, chunki insonlar uchun eng xavfli supertoksikantlar, shu jumladan kantserogen uglevodorodlar (HC) va ularning hosilalari hali ham nazorat qilinmagan.

Dunyoda foydalanilayotgan transport vositalarining ichki yonuv dvigatellarida ishlatilgan muqobil yonilg'ilarga quyidagilar kiradi: metanol, denaturatsiya qilingan etanol va boshqa spirtlar; benzin yoki dizel yonilg'isi bilan hamda spirtni o'z ichiga olgan aralashmalar; tabiiy gaz (siqilgan yoki suyultirilgan); suyultirilgan neft gazi; vodorod; ko'mir va biologik materiallardan olinadigan suyuq yonilg'i.

Vodorodning yonishi natijasida chiqadigan yagona gaz bu tabiiy suv ko'rinishiga kiradigan suv bug'idir. Bu jarayon uchun manba, vodorodni suvdan elektroliz orqali olish jarayonidir. Vodorod energiyasi g'oyasiga asos bo'lgan ushbu yopiq sikl vodorodni eng ekologik toza yonilg'ilardan biriga aylantiradi.

Dissertatsiyaning 2-bobi "**Nazariy asoslar va usullar. Benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish orqali avtomobilning**

ekspluatatsion ko‘rsatgichlarini oshirish» deb nomlangan. Bu bobda benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo‘shimcha berish orqali avtomobilning ekspluatatsion ko‘rsatgichlarini oshirishni mexanizmini nazariy asoslash, dvigatelning ish sikli hisobi, ko‘rsatgichlarini bashorat qilish va baholash ishlari yoritilgan.

Hozirgi vaqtda xalqaro, davlat va sohaga oid meyoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va amalda bo‘lib, ko‘plab xalqaro tashkilotlar vodorod yonilg‘ilaridan foydalanishga katta e‘tibor qaratmoqda.

Ichki yonuv dvigatellarini baholash mezonlari maksimal effektiv quvvat ($N_{e,max}$), maksimal burovchi moment qiymati ($M_{br,max}$), $N_{e,max}$ va $M_{br,max}$ da tirsakli val aylanishlar soni (n), yonilg‘i yoki energiya solishtirma sarfi, chiqindi gazlar tarkibidagi zaharli moddalarning miqdori va boshqalar.

Shuni ta’kidlash kerakki, YeIK BMT (EOK OOH) 83-qoidasi muqobil N_e^{AT} va asosiy N_e^{Baz} yonilg‘ilarida dvigatel quvvati qiymatlarining mumkin bo‘lgan nisbatlarini quyidagi formula bo‘yicha belgilaydi:

$$N_e^{AT} = (0.7 \dots 1.15) N_e^{Baz} \quad (1)$$

Avtotransport vositalarining ekspluatatsiya samaradorligini qiyosiy baholash transport ishlari uchun maxsus qisqartirilgan xarajatlar qiymatlari asosida amalga oshiriladi.

$$X_b = \sum_{i=1}^n T_{exi} + \frac{I_s \cdot (C + S_l)}{A_y}, \text{ sh.b/km} \quad (2)$$

bunda, T_{exi} – i-transport ishlari bajarishga sarflangan ekspluatatsiya xarajatlari,

sh.b/km (sh.b – shartli birlik so‘m, dollar yoki yevro);

I_s – kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy samaradorligi koeffitsienti;

C - transportda ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan kapital qo‘yilmalar, sh.b;

S_l – transport vositasini likvidatsiya qilish qiymati, sh.b;

A_y – avtomobilning yillik o‘rtacha bosib o‘tgan yo‘li, km.

Hozir zamon talablaridan kelib chiqib, iqtisodiy-ekologik talablar va transportni barqaror rivojlanish tendentsiyalarini hisobga oliagn holda, sog‘lom turmush muhitini, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat mezonlari, moddiy va ma’naviy farovonlik hisobga olib, baholash ishlari quyidagicha olib borishni tavsiya etish mumkin [40].

$$\left[\left(\frac{G_{yob} + S_{yob}}{A_y} + E_{zar} \right) / S_{xm} \right]_{baz} \geq \left[\left(\frac{(G_{yob} + G_{yob}) \cdot (S_{yob} + S_{yob})}{A_y} + E_{zar} \right) / S_{xm} \right]_{mod} \quad (3)$$

sh.b/yil

bunda, G_{yob}, G_{yob} – yillik yonilg‘i iste’moli, t/yil;

S_{yob}, S_{yob} - yonilg‘i yillik tannarxi, sh.b/t;

A_y – yillik bajarilgan ish hajmi, km/yil;

E_{zar} – yillik ekologik zarar, sh.b/km;

S_{xm} - avtomobilning xizmat qilish muddati, yil.

Mexanik transport vositalarining ekspluatatsion xususiyatlari tizimli yondashuvni hisobga olgan holda mashinalardan foydalanish samaradorligini har

tomonlama baholash imkonini beradigan mashinaning ishlash sifati ko'rsatkichlari orqali baholanadi.

Miqdoriy jihatdan jarayonning yonish tezligining o'zgaruvchanligi o'zgarish koeffitsiyenti k_w bilan baholanishi mumkin:

$$k_w = \frac{\delta_{wb}}{w_b} \quad (4)$$

bu yerda, δ_{wb} - yonish tezligining standart og'ishi, w_b - o'rtacha yonish tezligi.

Benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish parametrlari (qo'yi issiqlik ajralib chiqish qiymati misolida) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$H_u = H_1 \cdot m_1 + H_2 \cdot m_2, \text{ MJ/kg} \quad (5)$$

$$H_u = 33,91C + 125,6H(m\%) - 10,89(O-S) - 2,51(9H+W)$$

bunda, H_1 , H_2 - yonilg'i tarkibiy qismlarining qo'yi issiqlik ajralib chiqish qiymati, m_1 , m_2 - yonilg'i tarkibidagi komponentlarning massa yoki hajm ulushlari.

GM Chevrolet Cruze/Aveo/Lacetti yengil avtomobilining F16D3 dvigateli uchun benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish orqali hisoblab chiqarilgan:

1. Taqqoslanadigan asosiy yonilg'i - Ai-91 benzini;
2. Qo'shimcha yonilg'i – vodorod 15%.

Yengil avtomobil ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha ishlab chiqilgan metodologiya benzin-havo aralashmasiga vodorodni 15% motor yonilg'isi uchun bir vaqtning o'zida parallel hisoblash imkoniyatini hisobga olgan holda modernizatsiya qilingan Microsoft Excel dasturi yordamida amalga oshirildi. Bu bizga dastlabki ma'lumotlarning tegishli qiymatlarini tanlash va olingan qiyosiy natijalarni tahlil qilish imkonini beradi.

Avtomobillarning ishlash samaradorligi ko'p jihatdan ular jihozlangan ichki yonuv dvigatellarida ishlatiladigan motor yonilg'ilarining xususiyatlariga bog'liq.

Ekspluatatsiya sharoitida dvigatelning ish rejimlarining barqarorligiga erishish uchun moment (K_m) va tirsakli val aylanishlar soni (K_n) koeffitsiyentining kerakli qiymatlarini ta'minlash ham muhimdir.

Benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish ya'ni bazaviy va aralash yonilg'ida ishlaydigan dvigatelining tashqi tezlik xarakteristikasini matematik hisobi yuqoridagi vazifalarni bajarishga imkon beradi.

Tashqi tezlik xarakteristikasini matematik hisoblashning eng mashhur universal usuli S.R. Leyderman usuli bo'lib, bunda dvigatel quvvatining joriy qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$N_e = N_{\text{emax}}(n/n_N) [a + b(n/n_N) - c(n/n_N)^2], \text{ kVt} \quad (6)$$

bunda, N_{emax} – bazaviy va aralash yonilg'ilarda ishlaydigan nominal rejimda dvigatelning maksimal quvvati;

a, b, c - eksperimental tadqiqotlar natijalari asosida aniqlanishi mumkin bo'lgan dvigatel turiga (elektr ta'minoti tizimlari, yonilg'iga) qarab yarim nominal koeffitsiyentlari;

n/n_N - joriy tirsakli val aylanishlar soniga va maksimal quvvatdagi tirsakli val aylanishlar sonining nisbati.

Tashqi tezlik xarakteristikasining kerakli nuqtasidagi yonilg'ini solishtirma sarfi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$g_e^{yo} = g_{eN}(n/n_N) [1,2 - 1,2(n/n_N) + (n/n_N)^2], \text{ g/kVt}\cdot\text{soat} \quad (7)$$

bu yerda, g_{eN} – aralash (benzin+vodorod) yonilg'ilarida ishlaganda dvigatel nominal quvvatiga to'g'ri keladigan yonilg'ining solishtirma sarfi;

n/n_N – tirsakli valning joriy aylanishlar sonini dvigatel nominal quvvatga to'g'ri keladigan tirsakli val aylanishlar soniga nisbati.

Yarim nominal koefitsiyentlarining qiymatlari quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$a = \frac{(K_m \cdot K_n(2-K_n)-1)}{(K_n(2-K_n)-1)}, \quad (8)$$

$$b = \frac{(2K_n(K_m-1))}{(K_n(2-K_n)-1)}, \quad (9)$$

$$c = \frac{(K_n(K_m-1))}{(K_n(2-K_n)-1)}, \quad (10)$$

bu yerda, $K_m = M_{emax}/M_{eN}$ – momentga moslashish koefitsiyenti;

$K_n = n_N/n_M$ - tirsakli val aylanishlar soni bo'yicha moslashuvchanlik.

Moslanuvchanlik va yarim nominal koefitsiyentlarining qiymatlarini aniqlash uchun bajarilgan hisob-kitoblar natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Dvigatel burovchi momenti, tirsakli val aylanishlar soni va yarim nominallar uchun moslashish koefitsiyentlari

Koefitsientlar	Benzin Ai-91	Benzin+Vodorod yonilg'isi (15%)
K_m	1,21	1,2
K_n	2,6	2,6
a	1,13	1,12
b	0,42	0,41
c	0,55	0,53

Odatda dvigatel uchun n/n_N qiymatlarini o'nta (20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90, 100, 110%) nuqtaga o'rnatish tavsiya etiladi. Biz quvvatning empirik bog'liqligini, turli yonilg'ida ishlaydigan dvigatelning tirsakli val aylanishlar soniga mos yonilg'ini solishtirma sarfini olamiz. Amalda ular yettita nuqta bilan cheklangan (1-rasm).


$$N_e^{b+v15\%} = N_{e\max}(n/n_N) [a + b(n/n_N) - c(n/n_N)^2] = 80,6 \text{ kVt}$$

$$g_e^{b+v15\%} = g_{eN}(n/n_N) [1,2 - 1,2(n/n_N) + (n/n_N)^2] = 228,600 \text{ g/kVt}\cdot\text{soat}$$

Olingan quvvat va yonilg'i sarfining joriy qiymatlari asosida tashqi tezlik xarakteristikasini qurish uchun zarur bo'lgan moment va soatlik yonilg'i sarfining joriy qiymatlari quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$M_{ex} = 3 \cdot 10^4 N_{ex} / (\pi n_x), \text{ N}\cdot\text{m} \quad (11)$$

$$G_{tx} = 10^{-3} \cdot g_{ex} \cdot N_{ex}, \text{ kg/soat} \quad (12)$$



1-rasm. Vodorodning har xil konsentratsiya (benzin-havo-vodorod) laridan foydalanganda ichki yonuv dvigatelining tashqi tezlik xarakteristikalari

Bizga ma'lumki, standart suyuq motor yonilg'ilari sifat xususiyatlarini aniqlash uchun davriy ravishda tasniflash sinovlaridan o'tkaziladi. Bu ko'rsatkichlar standart ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi.

Dissertatsiyaning 3-bobi «Benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish orqali yengil avtomobillarning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha eksperimental tadqiqotlar o'tkazish» deb nomlangan bo'lib, bu bobda dissertatsiya ishining tajriba sinov maqsadlari, metodikasi, jihozlari va nazorat-o'lchov asboblari hamda laboratoriya stendi tajriba sinov tadqiqotlar natijalari berilgan.

Eksperimental tadqiqotning dasturiga quyidagilar kiritiladi:

tadqiqot metodologiyasining umumiy masalalarini, nazariy yechimlarga asoslangan holda yechish;

metrologik ta'minot, kerakli asbob-uskunalar va jihozlar ta'minotini, ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash tartibi, natijalarni tahlil qilish;

dvigatelning tashqi tezlik xarakteristikasi orqali, benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berishning samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash.

Tanlangan turdagi benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish orqali uchqundan o't oldiriladigan ichki yonuv dvigatelining qismlari va qismlarining ishlashi va ishonchligini baholash uchun, nazariy hisoblarni ishonchligini tasdiqlash maqsadida sinov stendida eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi (2-5-rasmlar).


Dvigatelning stendda sinash ishlari "RAPIDO" (Germaniya, quvvati 80 kVt) tormoz sinov qo'rilmisida o'tkazildi. Dvigatelni sinovdan o'tkazishda o'lchangan

parametrlarni o'lashning aniqligini oshirish va mehnat sarfini kamaytirish maqsadida TAYLQEI laboratoriyasida o'lchangan parametrlarni raqamli ko'rsatuvchi avtomatlashtirilgan o'lchash majmuasi yaratilib ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Poligon tadqiqotlari "Uz Test" DUK bilan hamkorlikda, Turin Politexnika Universiteti qoshidagi Pskent poligonida "Uz Test" DUK sinov uskunalari va asboblardan foydalangan holda amalga oshirildi (6, 7-rasmlar).


Vodorod elektrolizyoring texnologik xususiyatlari aniqlandi, benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish orqali ichki yonuv dvigatellarining ko'rsatkichlari tahlil qilindi va benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish orqali ishlaydigan yengil avtomobilning ekspluatatsiya ko'rsatkichlari olindi (6-rasm).

Vodorod generatorining ishlash prinsipi. Elektrolezor (4-rasm) yordamida suv ikki komponentli gazga, H-vodorod va O-kislorodga parchalanadi. Vodorod generatorining prinsipial sxema 8-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. Eksperimental tadqiqot stendining printsipial sxemasi.

- 1 - yonilg'i baki; 2 – signal kuchaytirgich; 3 – tirsakli val burilish burchagini ko'rsatuvchi kesikli disk; 4 - dvigatel; 5 - havo sarfini o'lchagich PF-100; 6 - muvozanatlashtiruvchi elektr tormozi; 7 – mufta; 8 – o'lchov majmuasining boshqaruv pulti; 9 – pyezodatchik svecha; 10 - kompyuter; 11 – avtomatlashtirilgan elektron yonilg'i sarfini o'lchovchi torozi.



3-rasm. Dvigatelni "Rapido" (Germaniya) sinov tadqiqot tormoz stendining umumiy ko'rinishi

- 1 - havo sarfini o'lchagich PF-100; 2 – tormozlash mexanizmi; 3 - RAPIDO balanslash mashinasi; 4 – tirsakli val aylanish sonini o'lchash uchun fotodatchik; 5 - radiator; 6 - dvigatel; 7 - kirish truboprovodi



TAYLQEI laboratoriyasida (Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti) olingan stend sinovlarida benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish orqali uchqundan o't oldiriladigan ichki yonuv dvigatellarining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash natijalari jadval va tashqi tezlik xarakteristikalar ko'rinishida keltirilgan (2-jadval).



4-rasm. Laboratoriyada vodorod elektrolizyorini tadqiqotlari




5-rasm. "Rapido" (Germaniya) sinov tadqiqot tormoz qoʻrilmasi boshqaruv pulti



6-rasm. Poligon ilmiy tadqiqot sinovlari



7-rasm. Eksploatatsiya ilmiy tadqiqotlar sinovlari



8-rasm. Vodorod generatori prinsipial sxemasi.

1-kalit; 2-rele; 3-massa; 4-saqlagich; 5-akkumlyator; 6-elektrolizyor; 7-rezervuar; 8-nam ushlagich; 9-havo filtri.

Stend sinovlarida asosiy va aralash yonilg'ida ishlaydigan ichki yonuv dvigatellarining ko'rsatkichlari ($n=5800 \text{ min}^{-1}$).

Nomlanishi	O'lchov birligi	Yonilg'i	
		Benzin Ai-91	Benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali (15%)
Nominal quvvat	kVt	79,8	80,4
Burovchi moment	N·m	139,7	142,9
Yonilg'ini soatli sarfi	kg/soat	7,5	6,67
Yonilg'ini solishtirma sarfi	g/kVt·soat (MJ/kVt/soat)	283,8	277,8

Ushbu maqsadlar uchun ishlab chiqilgan dasturlar va usullarga muvofiq Janubiy (Pskent) poligonining sinov yo'llarida turli xil motor (asosiy yonilg'i benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish orqali) yonilg'ilarida uchqundan o't oldiriladigan ichki yonuv dvigateli bilan jihozlangan yengil avtomobilning poligon tadqiqotlari o'tkazildi.

Ushbu tadqiqotlarning umumlashtirilgan natijalari jadval shaklida keltirilgan (3-jadval).

Yengil avtomobilni poligon tadqiqotlarining umumlashtirilgan natijalari

Yo'l yo'nalishi	Harakatlanish tezligi, km/soat	Yonilg'i sarfi, l/100km			
		Asosiy yonilg'i benzin		Benzin-havo aralashmasiga vodorodni qo'shimcha berish orqali	
		Haqiqiy	O'rtacha	Haqiqiy	O'rtacha
-	90	7,49	7,5	6,67	6,67
-		7,52		6,68	
+		7,5		6,65	
+		7,51		6,67	
-	120	7,78	7,79	6,93	6,92
-		7,79		6,91	
+		7,81		6,89	
+		7,77		6,94	

Poligon tadqiqotlarini o'tkazish metodologiyasi benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali kerakli tezliklarda (40, 60, 80, 100 km/s) ishlaydigan ichki yonuv dvigatelinin chiqindi gazlari tarkibiy qismlarini (CO , CH , NO_x , O_2 , CO_2) aniqlashni o'z ichiga oladi (4, 5-jadvallar). Benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali ekologik baholash nafaqat zararli chiqindilar (CO , CH , NO_x) va issiqxona gazlari karbonat angidridni (CO_2) kamaytirish asosida amalga oshirildi.

Poligon tadqiqotlarida ichki yonuv dvigatelining chiqindi gazlari tarkiblarini aniqlash (15% vodorod)

Yonilg'i	Dvigatelning salt ishlashidagi tirsakli valining aylanishlar soni	Ruxsat etilgan konsentrasiya		Sinov natijalari	
		Uglerod oksidi, hajimda ko'p emas, % da	Uglevodorodlar (CH), hajimda ko'p emas, mln ⁻¹ , silindrlar soni (4)	Uglerod oksidi, % da	Uglevodorodlar (CH), mln ⁻¹
Benzin	$n_{\min}=800 \text{ min}^{-1}$	1,0	400	0,7	129
Benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali	$n_{\min}=800 \text{ min}^{-1}$	1,0	400	0,33	97


Stend sinovlari jarayonida chiqindi gazlar tarkibidagi zaharli gazlarning benzin va benzin havo aralashmasiga vodorod berish orqali olingan tadqiqot natijalarini qiyoslash

Yonilg'i	Chiqindi gazlar, % (ulushi)				
	CO	CH	NO _x	O ₂	CO ₂
Benzin	2,5	147	557	11,7	6,38
Benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali (15%)	1,32 (52,8)	110 (74,8)	379 (68,0)	20,4	3,38 (53,0)
Kam chiqish farqi, %	47,2	25,2	32,0	-	47,0

Eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali uchqundan o't oldiriladigan ichki yonuv dvigateli bilan jihozlangan yengil avtomobil uchun vodorodni motor yonilg'isi sifatida ishlatilganda, CO, CH va NO_x chiqindilarining asosiy yonilg'i-benzinga nisbatan keskin kamayishi kuzatiladi (40 dan 100 km/soatgacha tezlikda 20-45 % ga).

Benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali motor yonilg'isi sifatida foydalanishning asosiy ilmiy g'oyasini tasdiqlovchi issiqxona gazi sifatida CO₂ ning (40 dan 100 km/soat tezlikda 10-47% ga) kamayishi eksperimental tadqiqotlar natijalari bilan tasdiqlangan.

Dissertatsiyaning 4-bobi «Benzin havo aralashmasiga vodorod berish orqali yengil avtomobillar ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish bo‘yicha nazariy va tajriba tadqiqotlarining tahlili» deb nomlangan. Bu bobda tadqiqotni amaliyotga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar, tajriba sinov natijalarini solishtirish va baholash, ularning ekologik hamda iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.



9-rasm. Asosiy yonilg‘i benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorod berish bilan ishlaydigan ichki yonuv dvigateling tashqi tezlik xarakteristikasi

Asosiy yonilg‘i benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorod berish bilan ishlaydigan yengil avtomobil ichki yonuv dvigatellarining F16D3 hisoblangan va eksperimental tashqi tezlik xarakteristikalarini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, tadqiqot uchun vodorod tarkibidagi konsentratsiyasi ishonchli energiya-ekologik bahoga javob beradi.

9-rasmda benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorod berish bilan ishlaydigan yengil avtomobil ichki yonuv dvigatellarining F16D3 hisoblangan va eksperimental tashqi tezlik xarakteristikalarini taqqoslash sinov stendi Rapido (Germaniya) da sinash natijasida olingan.

Bazaviy benzin (Ai-91), benzin havo aralashmasiga vodorod berish bo‘yicha hisoblangan va tajriba ma’lumotlarining qiyosiy natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

Qiyosiy poligon va ekspluatatsion sinovlar jarayonida olingan maksimal yurish tezligi, 100 km/soat tezlikka tezlanish vaqti, turli yoqilg‘ida ishlaydigan avtomobil chiqindi gazlaridan CO, CH, NO_x, CO₂ emissiyasini o‘lchash benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorod berish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning ilmiy asosligi 7-jadvalda keltirilgan.

Toshkent shaharidagi yo‘llarda shahar siklidagi yengil avtomobil dvigateliga asosiy yonilg‘i benzin va benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali o‘tqazilgan sinovlar natijalari 8-jadvalga berilgan.

6-jadval.

Yonuvchi aralashmalarni real ishlash sharoitiga yaqinlashtirilgan hisob-kitob va tajriba ma’lumotlarining qiyosiy natijalari ($n=5800 \text{ min}^{-1}$)

Ko‘rsatkichlar	Qo‘llaniladigan yonilg‘i					
	Benzin			Benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali		
	Hisoblangan	Tajriba	Δ , %	Hisoblangan	Tajriba	Δ , %
Quvvati, kVt	76,8	79,8	3,9	77,6	80,4	3,6
Burovchi momenti, N·m	134,6	139,7	3,7	136,9	142,9	4,3
Solishtirma yonilg‘i sarfi, g/kVt·soat	272,36	283,8	4,2	265,6	277,8	4,5

7-jadval.

Poligon tadqiqotlarida olingan eksperimental ma’lumotlarning qiyosiy natijalari

Ko‘rsatkichlar		Yonilg‘i sarfi, l/100 km	
		Benzin	Benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali
120 km/soatga erishgancha ketgan vaqt, sek	Tajriba	7,79	6,92
90 km/soat tezlikda yonilg‘i sarfi, l/100 km	Tajriba	7,5	6,67

8-jadval

Shahar siklida olingan tadqiqotlarida olingan eksperimental ma’lumotlarning qiyosiy natijalari

Harakatlanish yo‘nalishi	Bosib o‘tilgan yo‘l, km	Yonilg‘i sarfi, l/100 km			
		Benzinda		Benzin-havo aralashmasiga vodorod berish orqali	
		Haqiqiy o‘lchov natijasi	O‘rtacha qiymati	Haqiqiy o‘lchov natijasi	O‘rtacha qiymati
-	15	10,52	10,51	9,87	9,85
-		10,48		9,79	
+		10,54		9,86	
+		10,50		9,85	

